

INSON HUQUQLARIDA NOGIRONLIK VA INKLYUZIV RIVOJLANISH MASALALARI

Baxtiyorova Farangiz Ulug‘bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi

farangizbaxtiyorov@gmail.com

Annotatsiya: Bugun aholining shunday ijtimoiy qatlami mavjudki, ularni atrofimizda bo‘layotgan voqea-hodisalarda deyarli uchratmaymiz. Ular bir necha loyihalarda ijtimoiy muruvvat ko‘rsatilgan shaxslar sifatida namoyon bo‘ladi xolos. Biroq ularning har bir shaxsga tegishli huquqlar yetarlicha ta‘minlanayotganligi yoki ta‘minlanmayotganligi masalasi tahlil qilishga arziydi. Ushbu maqola nogironlar huquqlari ta‘minlanishi bilan bog‘liq muammoli holatlarni muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida” gi konvensiya, inklyuziv ta‘lim, UNICEF, JSST, Jahon Baki, statistika.

Аннотация: Сегодня существует такой социальный слой населения, что мы почти не встречаем его в происходящих вокруг нас событиях. Они появляются в нескольких проектах как люди, которым оказывают социальную поддержку. Однако стоит проанализировать вопрос о том, достаточно ли им обеспечены права каждого человека. В данной статье рассматриваются проблемные ситуации, связанные с обеспечением прав инвалидов.

Ключевые слова: Конвенция о правах инвалидов, инклюзивное образование, ЮНИСЕФ, ВОЗ, Всемирный банк, статистика.

Abstract: Today there is such a social stratum of the population that we hardly meet them in the events happening around us. They appear in several projects as individuals who are shown social favors. However, it is worth analyzing the question of whether or not the rights of each person are sufficiently provided to them. This article discusses problematic situations related to the provision of rights of disabled people.

Key words: Convention on the Rights of Persons with Disabilities, inclusive education, UNICEF, WHO, World Bank, statistics.

KIRISH

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da keltirilishicha, “barcha insonlar erkin, qadr-qimmatini va huquqlari bo‘yicha teng bo‘lib tug‘iladilar”¹. UNICEF inson

¹ Universal declaration of human rights (1948), <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

huquqlari bo'yicha o'z qarashlarini quyidagicha bayon etadi: "Inson huquqlari - bu barcha insonlarning qadr-qimmatini tan oladigan va himoya qiladigan standartlar. Inson huquqlari insonlarning jamiyatda va bir-biri bilan qanday yashashini, shuningdek, ularning davlat bilan munosabatlarini va davlatning ular oldidagi majburiyatlarini tartibga soladi. Shuningdek shaxslarning ham majburiyatlari bor: inson huquqlaridan foydalanishda ular boshqalarning huquqlarini hurmat qilishlari kerak. Hech bir hukumat, guruh yoki alohida shaxs bironing huquqlarini buzadigan har qanday harakat qilishga haqli emas" ². Bu tushuncha insonni qanday holatda, qanday oila yoki qaysi davlatda tug'ilganligi va yashab kelayotganligidan qat'iy nazar qamrab oladi, ya'ni har bir shaxs huquq va majburiyatlar, qadr-qimmatini jihatdan tengdir. Jamiyatning bir guruh vakillari borki, ular ham boshqa shaxslar kabi nafas oladi, atrofda bo'layotgan hodisalarga munosabat bildiradi va eng muhimi har bir insonga xos hissiyotlarni boshidan kechiradi. Ming afsuski, ularni jamiyat o'z doirasiga sig'dirmaydi, xususan, ular har kunlik voqea-hodisalar ta'sirida o'zlarini chin ma'noda imkoniyati cheklangan ekanligi his qilib yashashga majbur bo'lib qolmoqda. Masalan, ommaviy transportdan foydalanishda bir ovozni eshitamiz, unda qariyalar, homiladorlar va imkoniyati cheklangan insonlarga joy bo'shatish so'raladi. Ammo bir-biriga befarq insonlar bu so'rovni ba'zida eshitmaydi yoki shunchaki pisand qilmaydi. Ommaviy transportga talab shunchalik ko'pligidan doimiy tiqilinch va navbatlarning oxiri ko'rinmaydi, natijada ular turli qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. Ehtimol shahar ularga moslashmaganligi uchunmi, bu toifa vakillarini jamoat transportida kamdan-kam uchratamiz. Gap nogironligi mavjud bo'lgan shaxslar haqida ketmoqda. Ular bugungi kunda ko'p iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

МУХОКАМА ВА ТАХЛИЛЛАР

Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda

1 milliarddan ziyod kishida, ya'ni dunyo aholisining 15% ida nogironlikni u yoki bu turi kuzatiladi. Ularning 80% rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi. Jahon banki tadqiqotiga ko'ra, O'zbekistonning 3 va undan katta yoshdagi jami aholisining 13,5 foizi qaysidir shaklda nogironlikka ega. Mamlakatda nogironlikning tarqalishi yosh bilan chambarchas bog'liq: 60 va undan katta yoshdagi odamlarning 54 foizida nogironlik bor³. Ushbu yuqori ko'rsatkichlar ularning huquq va erkinliklarini ta'milash uchun chora-tadbirlarga ehtiyoj naqadar katta ekanligini yana bir isbotidir. Bu yo'lda O'zbekiston 2021 yil 7 iyunda "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyani

² The United Nations International Children's Emergency Fund, Available at: <https://www.unicef.org/child-rights-convention/what-are-human-rights>

³ Jahon banki ma'lumotlar bazasi, <https://www.worldbank.org/en/home>

ratifikatsiya qilgan edi. Ushbu konvensiyaning 4-moddasiga muvofiq a'zo davlatlar quyidagi majburiyatlarni olgan:

- konvensiyada e'tirof etiladigan huquqlarni amalga oshirish uchun barcha zarur qonunchilik, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rish;

- nogironlarga nisbatan kamsitish xususiyatiga ega mavjud qonunlar, qarorlar, urf-odatlarini o'zgartirish yoki bekor qilish uchun barcha zarur choralarni, shu jumladan qonunchilik choralarni ko'rish;

- barcha strategiyalar va dasturlarda nogironlar huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirishni hisobga olish;

- konvensiyaga to'g'ri kelmaydigan har qanday harakatlar yoki usullardan tiyilish hamda davlat organlari va muassasalari konvensiyaga muvofiq ish tutishlarini ta'minlash;

- har qanday shaxs, tashkilot yoki xususiy korxonadan nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishni bartaraf etish uchun zarur choralarni ko'rish;

- nogironlar uchun mos tushadigan yangi texnologiyalar, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, harakatchanlik, qurilmalar va assistiv texnologiyalarni yengillashtiradigan vositalarning ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalarini olib borish yoki rag'batlantirish, bunda arzon texnologiyalarga birinchi darajali e'tibor berish;

- harakatchanlik, qurilmalar va assistiv texnologiyalarni yengillashtiradigan vositalar, shu jumladan yangi texnologiyalar, shuningdek yordam ko'rsatish, qo'shimcha xizmatlar va obyektlar to'g'risida foydalanish imkoniyati bo'lgan axborotlarni nogironlarga taqdim etish va boshqalar.

Konvensiya asosida olingan majburiyatlarning implementatsiyasiga oid bir qator hujjatlar va harakatlar amalga oshirilmoqda, ammo bu sohada yechimini topmagan muammoli holatlar talaygina.

Imkoniyati cheklangan shaxslar duch kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolar.

Jahon banki 2022-yilning yakunida O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar duch kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tahlil qiluvchi yangi hisobotini e'lon qilgan edi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nogironligi bo'lgan bolalar va voyaga yetganlarning 25 foizi zarur tibbiy yordamni olmaydilar. To'lovlar bilan bog'liq qiyinchiliklar tufayli ushbu toifadagi fuqarolar shifokorlar yozgan dori-darmonlarni 3 baravar kam oladi. Ammo konvensiya 25-moddasiga ko'ra, *ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar sog'liqni saqlash sohasida gender xususiyatini hisobga oladigan xizmatlardan, shu jumladan salomatliklarining holati bo'yicha rehabilitatsiya qilish bepul va qimmat bo'lmagan tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash choralarni ko'rishlari lozimligi keltirilgan.*

Bundan tashqari, ayollarning umr ko‘rish darajasining nisbatan yuqoriligi sababli, nogironlik holati keksa yoshli ayollarda ko‘p uchraydi, eng qiziqarlisi, yurtimizda nogironlik holatini tasdiqlash uchun alohida tibbiy maslahat komissiyasi tuziladi va uning xulosasiga binoan shaxs “nogiron” deb topiladi. Bu esa ortiqcha qog‘ozbozlik shuningdek, og‘ir holatlarda esa kuchli ruhiy ta’sirga ham olib kelishi mumkin. Nogironlar uchun berilgan kafolatlardan foydalanish uchun shaxs o‘zini rasman nogironligini isbotlashi kerakligi, uni o‘zini yanada jamiyatdan ajratishiga yoki o‘ziga bo‘lgan bahosi, ishonchi tushib ketishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, kerakli infratuzilmalardan foydalana olmaslik nogironlarning turmush tarzi va farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Toshkent shahridagi binolar va ijtimoiy infratuzilmalarning 85 foizi nogironlar foydalanishi uchun moslashtirilmagan. Binolarda maxsus nogironlar harakatlanishi, to‘xtashi yoki ko‘p qavatli binolarda yuqoriga ko‘tarilishi uchun deyarli sharoit mavjud emas. To‘xtash joylari (parkinglar) ni misol qilib olsak, nogironlar uchun to‘xtash joylariga nisbatan standartlar mavjud bo‘lib, yurtimizda sanoqli binolar avtoturargohlarida xuddi shunday to‘xtash joylarini ko‘rish mumkin, Biroq eng achinarlisi, ulardan korxonalar ishchilari yoki ehtiyoj bilan kelgan boshqa sog‘lom aholi foydalanadi. Standartlarga ko‘ra, kirish mumkin bo‘lgan to‘xtash joyining muhim jihati ⁴ - bu taklif qiladigan joyning hajmida. Kirish mumkin bo‘lgan to‘xtash joylarining o‘lchamlari hech kim o‘z mashinasini nogironlarning transport vositasiga juda yaqin joylashtira olmasligini ta’minlaydi. Ular odatiy kenglikdan taxminan 1,2 metr kengroq va ularning umumiy kengligi kamida 3,6 metrni tashkil qiladi. Bu esa nogironlarga o‘z transport vositalarini xavfsiz boshqarish va o‘zlari uchun kerakli harakatlanish uskunalari yig‘ish uchun etarli joyni ta’minlaydi. Shuningdek, baxtsiz hodisalarini oldini olish uchun yo‘lak teshiklarini darhol asfalt yoki beton bilan to‘ldirilishi kerak, vaholangki, yurtimizda ayrim hududlarda to‘xtash uchun maxsus joylardagi chuqurchalar u yoqda tursin, hattoki yo‘llar va piyodalar o‘tish yo‘lakchasida ko‘plab yoriqlarni ko‘rish mumkin. Bu esa aravachada harakatlanadigan shaxslarning shu chuqurchaga tushib qolib, harakatlana olmay qolishi, oqibatda avtohalokatga sabab bo‘lishi tabiiy. Shu kabi holatlar bo‘yicha talab “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyada ham mavjud bo‘lib, uning 9-moddasiga binoan, “konvensiya ishtirokchilari binolar, yo‘llar, transport hamda boshqa tashqi va ichki obyektlar, shu jumladan maktablar, turar-joylar, tibbiyot muassasalari va ish joylarida foydalanish imkoniyatiga xalaqit beradigan to‘siqlarni aniqlash va bartaraf etishni qamrab oladigan choralarini ko‘rish kerakligi haqida qoida mavjud”. Demak,

⁴ How To Protect Parking For Disabled Persons - A Complete Guide, Available at: <https://parklio.com/en/blog/how-to-protect-parking-for-disabled-persons-a-complete-guide>

konvensiya ishtirokchisi sifatida davlat nogironlarga bunday imkoniyatlarini ta'minlashi kerak. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida "davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi" mazmunidagi norma mustahkamlangan edi. O'zbekistonda nogironlar huquqlarini himoya qilishga doir shu kabi ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar bor, lekin mavjudlikni o'zi ularni ishlayotganidan dalolat bermaydi. Bizningcha, huquq normalari qabul qilish juda muhim lekin ularni amalga oshirish mexanizmlari undanda ahamiyatliroq.

Poytaxtimizdagi jamoat transporti ham nogironlar uchun qulaylik mezonlariga javob bermaydi, bu esa nogironlar farovonligi uchun jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Imkoniyati cheklangan shaxslar boshqa bir shaxsga qaram bo'lib qoladi, ularning yordamisiz ko'p sonli odamlar orasida harakatlana olmay qoladi. Bu ular o'zlarini kuchsiz his qilishiga va mustaqil yashash imkoniyatlaridan foyalana olmasliklariga olib keladi.

Ta'lim tizimidagi muammolar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 20-iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvida so'zlagan nutqida

"Nogironligi bo'lgan shaxslarni har qanday shaklda ajratib qo'yish, ularning huquqlarini cheklash, obyektlar va xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan bosh tortish ta'qiqlanadi. Aholining e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi" **deya o'z taklifini bergan va bu xususida aholini takliflari o'rganilish asosida 50- moddaga⁵ alohida e'tiborga muhtoj bolalar uchun inklyuziv ta'lim tashkil etilishi haqida qo'shimcha kiritildi.** Inklyuziv ta'lim bu - har bir o'quvchiga teng imkoniyatlar yaratilishi va bir xil huquqlarning berilishidir. Shu kabi o'zgartirishning konstitutsiyaga kiritilishi juda quvonarli hol, albatta. Birgina inklyuziv ta'limni joriy qilish orqali nogironlarning ta'lim olish jarayonidan har qanday holatda ajratib qo'yilishini oldini olish va sifatli ta'limga erishish mumkin deb hisoblaymiz. Afsuski, tajriba tariqasida 2021-2022 o'quv yilida O'zbekiston shaharlari va Toshkent shahri tumanlaridagi 42 ta umumta'lim maktabida inklyuziv ta'lim tizimi joriy etildi. Mazkur tajriba dasturi natijalariga ko'ra, ta'limga inklyuziv yondashuv respublikaning boshqa hududlarida ham joriy etilgan. Biroq o'rganishlar natijasida, umumta'lim maktablari imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay

⁵ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son, <https://lex.uz/docs/-6445145>

infratuzilma va hojatxonalar, o'quv jarayoni uchun zarur jihozlar, malakali kadrlar bilan ta'minlanmagani uchun hali bunga tayyor emasligi ma'lum bo'lgan⁶. Jumladan, surdo-tarjimonlar, ko'zi ojizlar uchun brayl alifbosidagi darsliklar, o'qishda nuqsoni bo'lgan va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun o'qituvchilarga ehtiyoj sezilmoqda. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 24-moddasiga asosan davlatlar "nogironligi bo'lgan shaxslar boshqalar bilan teng ravishda o'z yashash joylarida inklyuziv, sifatli va bepul boshlang'ich ta'lim va o'rta ta'limni olish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun intilishi kerak ekanligi majburiyatini oladi". Yuqoridagi tahlillardan so'ng, nogironlar huquqlari ta'minlanishi masalasini yuqori baholash juda qiyin. Ko'rinib turibdiki, ayni damda ushbu sohadagi ayrim "o'lik" - ishlamayotgan normalarni jonlantirish va samarali hayotga tadbiiq etishga ehtiyoj sezilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson huquqlarini ta'minlash, har bir individ uchun munosib sharoitlar yaratilishi, konvensiyaning hayotga samarali tadbiiq etilishi uchun, eng avvalo, imkoniyati cheklanganlarga nisbatan jamiyatdagi munosabatni o'zgartirish shartdir. Negaki, qonun chiqaruvchi yuzlab huquq normalarini qabul qilishi, amaliyotga tadbiiq etishga qanchalik intilmasin aholi ongida hurmat va hamdardlik hissi shakllanmas ekan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish masalasi qiyin bo'lib qolaveradi. Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, inklyuziv ta'limni yuqori darajada ta'minlab kelayotgan **Yaponiya** 2014 yilda "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyani ratifikatsiya qilgan hisoblanib, ta'lim tizimidagi inklyuziv islohotlarni imkoniyati cheklangan yoki jismoniy nuqsoni mavjud bo'lgan o'quvchilarga nisbatan "simpatik muhit" shakllantirishdan boshlagan⁷. Davlatda istiqomat qiluvchi aholi va ta'lim oluvchilarga nuqsoni mavjud shaxslarga yordam berish, ularni qo'llab-quvvatlash lozimligi tushuntirish juda muhim. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammoli holatlarga quyidagicha yechimlarni berish maqsadga muvofiq:

✓ Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun transport va ta'lim dargohlarida ham sharoitlarni yaxshilash, bir qancha muammoli holatlarga yechim topilishiga olib kelgan bo'lar edi.

⁶ World Bank highlights challenges faced by people with disabilities in Uzbekistan, (2022), <https://kun.uz/en/news/2022/01/31/world-bank-highlights-challenges-faced-by-people-with-disabilities-in-uzbekistan>

⁷ Han, C., Kohara, A., Yano, N. and Aoki, M. (2013). The current situation and issues of inclusive education for special needs education in Japan: a present state analysis and comparative analysis. Bull. Faculty Educ. University of the Ryukyus 83, 113–120.

✓ Yangi qurilayotgan binolarning arxitekturasiga nogironlar kirishi va chiqishi, bino ichki imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratilishi bilan bog'liq qat'iy talab joriy etish.

✓ Hozirgi kunda foydalanib kelinayotgan binolarni bosqichma-bosqich imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlarini hisobga olgan holda rekonstruksiya qilish;

✓ Jamoat transportlarini ular uchun alohida o'rindiqlar bilan jihozlash. Bugungi kunda, nogironligi bo'lgan kimsalar uchun eng yaxshi davlatlardan biri sifatida qaraladigan Niderlandiyani tajribasiga nazar tashlasak, davlat ushbu ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni hayot darajasini yaxshilash uchun izchil harakatlarni amalga oshirib kelmoqda, xususan, ayni damda Niderlandiyaga tashrif buyuruvchi nogiron shaxslarga rampali va maxsus ko'targichlari mavjud avtobuslar xizmati taklif etiladi⁸.

✓ Piyodalar harakatlanish yo'laklari va yo'llar holatini yaxshilash. Germaniya yo'llar bilan bog'liq muammoli holatga ajoyib tarzda yondashadi, ya'ni maxsus veb-sayt orqali shaxslar nogironlar aravachasida harakatlanish oson bo'lgan yo'llarni va yo'nalishlarni topishi mumkin. Ushbu usul nogironligi bo'lgan shaxslar harakatlanishi uchun yarqosiz yo'llar bilan yaroqli yo'llarni ajratib olishga yordam beradi. Bu esa foydalanuvchining vaqtini tejaydi hamda baxtsiz hodisalar xavfini kamaytiradi.

✓ Inkyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, har qanday jismoniy yoki ruhiy kamchiligi tufayli hech bir kimsa kamsitilishi va hayoti davomida foydalanishi mumkin bo'lgan imkoniyatlardan foydalana olmay qolishi adolat qoidalariga zid. Chunki har kim o'z huquqlarida teng ravishda foydalanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy takliflardan zavqlanishga haqli. Bizningcha, nogironligi bo'lgan kimsalar har yili bayramlar arafasida eslanadigan xayriyalar nishoni bo'lishi kerak emas. Ular ijtimoiy yordamlardan ham ko'proq, huquqlaridan to'laqonli foydalanish imkoniyati bilan siylanishi kerak!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Universal Declaration of human rights (1948), <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
2. The United Nations International Children's Emergency Fund, Available at: <https://www.unicef.org/child-rights-convention/what-are-human-rights>

⁸ Thomas Tidley, (2023), The most disabled friendly countries in the world. Available at: <https://rolstoelco.com/the-most-disabled-friendly-countries-in-the-world/>

3. Jahon banki ma'lumotlar bazasi, <https://www.worldbank.org/en/home>
4. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (2006), <https://lex.uz/docs/-5501227#-5521203>
5. How To Protect Parking For Disabled Persons - A Complete Guide, Available at: <https://parklio.com/en/blog/how-to-protect-parking-for-disabled-persons-a-complete-guide>
6. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son, <https://lex.uz/docs/-6445145>
7. World Bank highlights challenges faced by people with disabilities in Uzbekistan, (2022), <https://kun.uz/en/news/2022/01/31/world-bank-highlights-challenges-faced-by-people-with-disabilities-in-uzbekistan>
8. Han, C., Kohara, A., Yano, N. and Aoki, M. (2013). The current situation and issues of inclusive education for special needs education in Japan: a present state analysis and comparative analysis. Bull. Faculty Educ. University of the Ryukyus 83, 113–120.
9. Thomas Tidley, (2023), The most disabled friendly countries in the world. Available at: <https://rolstoelco.com/the-most-disabled-friendly-countries-in-the-world/>